ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 102 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Umarova H. O‘. –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O‘. – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo‘icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Umarova H. O‘. –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O‘. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko‘ra, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo‘yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish ........ 16
Nazarov Odil Omanqulovich
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni ........ 20
Abirova Umida Nazarovna
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati ........ 23
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari ........ 27
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati . 31
Salimova Dilmira Farxodovna
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar ........ 34
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati ........ 37
Boltayev Baxtiyor Yunusovich
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar ........ 41
E. Po'latova
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati .... 44
Egamova Ravshanoy Surobjonovna
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar ........ 48
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi ........ 53
Isayeva Mushtariy Alisher qizi
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons ........ 56
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish ........ 60
Nomozova Dilobar Suyun qizi
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish:
bosqichlar va tamoyillar ........ 65
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories ........ 68
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:
a Review of Recent Literature ........ 73
Ruzieva Maftuna
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga
qiziqishni oshirishning nazariy asoslari ........ 78
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi
(9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) ........ 81
Sharipova Hakima Shavkatovna
Metacognition and Self-Regulated Learning ........ 85
Turayeva Nazira Ibragimovna
Методические возможности совершенствования обучения научной
письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода ........ 88
Меденцева Наталья Петровна
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari
raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari ........ 93
Jonibekov Jasur Jonibekovich
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi ........ 98
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

# O'ZBEK MILLIY MUSIQASI: BOY MADANIYAT VA SAN'ATNING AJRALMAS QISMI

Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: X. Botirova
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti

**Annotatsiya:** O'zbek milliy musiqasi asrlar davomida shakllangan, boy tarixiy meros va xalq madaniyati bilan chambarchas bog'liq san'at turidir. Bu musiqa xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, diniy va falsafiy qarashlarini aks ettiradi. O'zbek musiqasi turli davrlar va madaniyatlarning birlashuvi natijasida shakllanib, yillar davomida saqlanib kelgan. U nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo va dunyo miqyosida e'tirof etilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy musiqa, maqom san'ati, shashmaqom, o'zbek estradasi, an'anaviy ijrochilik, madaniyat, san'at.

**Abstract:** Uzbek national music is an art form that developed over centuries, closely linked to the rich historical heritage and culture of the people. This music reflects the lifestyle, traditions, religious and philosophical views of the people. Uzbek music emerged from the fusion of different eras and cultures and has been preserved over the years. It is recognized not only in Uzbekistan but throughout Central Asia and the world.

**Key words:** national music, maqom art, shashmaqom, Uzbek pop, traditional performance, culture, art.

**Аннотация:** Узбекская национальная музыка – это вид искусства, сформировавшийся на протяжении веков, неразрывно связанный с богатым историческим наследием и культурой народа. Эта музыка отражает образ жизни, традиции, религиозные и философские взгляды народа. Узбекская музыка сложилась в результате слияния различных эпох и культур и сохраняется на протяжении многих лет. Она признана не только в Узбекистане, но и во всей Средней Азии и за её пределами.

**Ключевые слова:** национальная музыка, искусство макома, шашмаком, узбекская эстрада, традиционное исполнительство, культура, искусство.

## KIRISH

Maqom – sehrli va an'anaviy san'at bo'lib, qalbga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik va mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligi qadimiy merosimizni o'zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklarni ham sehrlanib, sel bo'lib tinglashga undaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash va uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar milliy maqom san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan ulkan e'tibor va g'amxo'rlikda yorqin ifodasini topmoqda.

Ushbu sa'y-harakatlar doirasida 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi va san'atimiz rivojida yangi istiqbollar ochildi. Mazkur hujjat o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganish, ijro maktablari va an'analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish hamda keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2018-yil 28-noyabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror esa respublikamizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar taraqqiyotining yorqin namunasi hisoblanadi.

Shuningdek, Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ilhom" jamoat fondi, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (Madaniyat vazirligi huzurida), O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi. 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati festivalini o'tkazish belgilandi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qodirov B.E. (2015). O'zbek maqomi tarixi va uning zamonaviy rivojlanish xususiyatlari. Ushbu monografiyada o'zbek maqomining yuzaga kelishi, shakllanishi va zamonaviy sahnaga moslashuv jarayonlari batafsil tahlil qilinadi. Muallif maqom san'ati uslubiy jihatlari, asosiy maktablari hamda ijrochilik an'analari ustida to'xtalib, ularning xalq ma'naviyatiga qo'shgan hissasini yoritadi. Kitobda, shuningdek, maqom ijrochiligining pedagogik omillari ham muhokama qilinib, uni avloddan-avlodga uzatishdagi vositalar ko'rib chiqiladi.

Raxmonov, N. A. (2018). "O'zbekiston milliy musiqa merosining saqlanishi va ommaviylashuvi". Maqolada O'zbekiston milliy musiqasining tahlili, uning ommaviy axborot vositalaridagi roli va saqlash muammolari muhokama qilinadi. Raxmonov televideniye, radio hamda internet platformalarida maqom va xalq qo'shiqlari targ'ibotining ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqadi, merosni himoya qilish hamda yosh avlodga yetkazish strategiyalarini taklif qiladi.

Usmonova, G. A. (2020). O'zbek xalq cholg'u asboblari va ijro an'analari. Ushbu monografiya o'zbek cholg'u ansambllari, ularning tarixi va ijro texnikasiga bag'ishlangan. Ayniqsa, dutor, tanbur, gidjak va doira kabi cholg'ular bo'yicha maxsus bo'limlar mavjud. Har bir asbobning milliy musiqadagi o'rni, uning tonal-ritmik xususiyatlari va etnografik manbalardan olib qisqacha misollar keltiriladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

"O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi" mavzusini chuqur o'rganish uchun ishlab chiqildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o'zbek milliy musiqasining madaniy-san'at sifatidagi ahamiyatini aniqlash va uning jamiyatda saqlanish, rivojlanish mexanizmlarini yoritishdan iborat. Buning uchun biz sifat va miqdoriy usullarni uyg'unlashtiruvchi aralash metodologiyani qo'llaymiz.

Avvalo, sifatli bosqichda maqom va shashmaqom san'atkorlari hamda zamonaviy estradachilar bilan yarim strukturali intervyular o'tkaziladi. Suhbat davomida ijrochilar o'zbek musiqasining tarixiy ildizlari, o'rni va bugungi kunda duch kelayotgan muammolar haqidagi qarashlarini bayon etadi. Shu bilan birga etnografik kuzatuv metodi yordamida konsert va mashg'ulotlarda tomoshabinlar hamda ijrochilarning o'zaro munosabatlari, emotsional reaksiyalari qayd etiladi.

Keyingi bosqichda miqdoriy ma'lumot yig'ish uchun Toshkent, Samarqand va Buxorodagi maktab va oliy o'quv yurtlari talabalari orasida anketalar tarqatiladi. So'rovnomada milliy musiqaga bo'lgan qiziqish darajasi, uni qadrlash sabablari va saqlashga oid takliflar keltiriladi. Yig'ilgan ma'lumotlardan deskriptiv statistika (o'rtacha, dispersiya) hamda korrelatsion tahlil usullari orqali yosh va madaniy qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi.

Qimmatli pedagogik va hujjatli manbalarni o'rganish uchun kitob, maqola va tele-radio dasturlarning kontent-tahlili olib boriladi. Bu jarayonda maqom va shashmaqom ijrosidagi madaniy-semantik kodlar aniqlanib, ularning jadalligi va ommaviy axborot vositalaridagi aks ettirilish darajasi tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida respondentlarning roziligi yozma ravishda olinib, ularning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi ta'minlanadi. Sifatli ma'lumot ishonchliligini oshirish uchun ikki mustaqil kodlovchi tematik tahlilni amalga oshiradi (interkoder ishonchliligi ko'rsatkichini hisoblash), so'rovnoma esa pilot-sinovdan o'tkazilib, Cronbach α koeffitsienti orqali ichki barqarorligi tekshiriladi.

Tadqiqot taxminan to'rt oy davom etadi: dastlab savolnomalar va intervyu savollari ishlab chiqilib, birinchi oyda pilot-sinovlar o'tkaziladi; ikkinchi va uchinchi oylar sifatli va miqdoriy ma'lumot yig'ish hamda kontent-tahlilga bag'ishlanadi; oxirgi oy natijalar tahlili va hisobot tayyorlashga ajratiladi. Natijalar asosida O'zbek milliy musiqasini saqlash, rivojlantirish va ommaviylashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek milliy musiqasining ildizlari uzoq tarixga ega. Eramizdan avvalgi davrlardan boshlab xalq musiqasi shakllana boshlagan. Turli xalqlar va davlatlar o'rtasidagi madaniy aloqalar natijasida o'zbek musiqasi o'ziga xos shakl va ohanglarni rivojlantirgan. Xususan, Buyuk Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo va madaniy munosabatlar O'zbekiston hududida musiqa san'atining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda musiqa asosan diniy marosimlarda, xalq bayramlari va rasmiy tadbirlarda ijro etilgan. O'zbek xalq musiqasi sodda, lekin chuqur ma'noli ohanglari bilan ajralib turadi – ohanglar sodda bo'lishiga qaramay, murakkab ritmlardan iborat. Xalq qo'shiqlari sevgi, vatanparvarlik, urush va mehnat mavzularini tarannum etadi; unda xalqning kundalik hayoti, qayg'usi va quvonchi aks etadi. Odatda xalq musiqasi dutor, doira, tanbur, g'ijjak, nay kabi milliy cholg'u asboblarida ijro etiladi. Bu asboblar o'zbek musiqasining o'ziga xosligini ta'minlovchi asosiy elementlardir. Masalan, dutor sokin va nozik ohanglari bilan ommalashgan, g'ijjak esa kuy va maqomlarda asosiy cholg'u sifatida ishlatiladi.

O'zbek musiqa madaniyatida alohida o'rin tutadigan san'at turi – maqomdir. Maqomlar murakkab va chuqur ma'noli musiqiy kompozitsiyalardir. Ular Sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo'lib, milliy musiqa-

ning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo'lib, bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan ifodasidir. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasi qomusidir, xususan "Shashmaqom"da o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, sado ohanglar, doira usullari va she'riyat bilan xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalari to'laqonli namoyon bo'ladi.

Maqom san'ati mumtoz o'zbek musiqasining eng yuksak namunasi hisoblanadi. O'zbek maqomlari Xorazm va Buxoro hududlarida keng rivojlangan bo'lib, ularning turli shakl va turlari mavjud. Maqom ijrochilari musiqiy asarlarni ko'p qismli shaklda ijro etib, har bir bo'limda turli kayfiyat va holatlarni tasvirlaydi. Ushbu musiqiy asarlar mumtoz she'riyat bilan uyg'unlashgan bo'lib, unda ko'pincha falsafiy va diniy mazmunlar aks etadi. "Shashmaqom"ning UNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida tan olingani va uning Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, "Shashmaqom" notaviy matnlarining nashr etilishi va maqom kuy-qo'shiqlarining magnit lentalarga yozib olinishi ulkan ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega hodisa bo'ldi.

Bugungi kunda o'zbek milliy musiqasi an'anaviy cholg'u va qo'shiqlar bilan birga zamonaviy janrlar bilan boyib bormoqda. Estrada, pop, rock kabi janrlarda milliy ohanglar saqlanib qolgan. Xususan, o'zbek estrada san'atkorlari milliy kuylarni zamonaviy musiqiy asarlar bilan uyg'unlashtirib, xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu borada ilk o'zbek estrada namoyondasi Botir Zokirovning o'rni beqiyosdir. Hozirgi zamon bastakor va kompozitorlari xalq an'analarini saqlagan holda yangi musiqiy tajribalar yaratmoqda; misol uchun Dilorom Omonullayeva, Rutam Abdullayev, S. Hayitboyev kabi san'atkorlarni keltirish mumkin. Bu ham o'zbek musiqasining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbek milliy musiqasi xalqning ma'naviy boyligini aks ettirib, uning tarixi va madaniyati bilan bevosita bog'liqdir. Bu musiqa turli bayramlar, to'ylar, diniy marosimlar va xalqning kundalik hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Musiqa orqali xalq o'z ruhiyatini ifoda etadi, an'ana va qadriyatlarini saqlab keladi. Shuningdek, o'zbek milliy musiqasi xalqaro miqyosda ham o'ziga xosligi bilan tanilib, O'zbekiston madaniy merosining muhim qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbek milliy musiqasi chuqur ma'nosi, boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Milliy musiqa har bir xalqning tarixini va madaniyatini o'zida aks ettiradi. O'zbek musi qasi ham madaniy meros sifatida saqlanib, zamon va hayot tarzini aks ettiradi hamda kelajak avlodlarga milliy madaniyatni yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ismoilov, A. T., & Hamroyev, S. U. (2017). O'zbek maqom san'ati: tarixi va zamonaviy rivojlanishi. Toshkent: Fan.
2. Usmonova, G. A. (2019). Shashmaqom san'ati va ijrochilik an'analari. Buxoro: Madaniyat nashriyoti.
3. Raxmonov, N. A. (2018). O'zbek milliy musiqa merosini saqlash va targ'ib qilish. Toshkent: Ilm-Ziyo.
4. Levin, T. (1996). The Hundred Thousand Fools of God: Musical Travels in Central Asia. Bloomington: Indiana University Press.
5. Slobin, M. (2000). Transposing the Soundscape: Gidon Kremer's Journey in Central Asian Music. Oxford: Oxford University Press.
6. UNESCO. (2003). Shashmaqom: Nomination file for inscription on the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity. Paris: UNESCO.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №7**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.